



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ONOMATOPEIK BIRLIKLAR SEMANTIKASI

Sharipova Moxidil Shavkatjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

mohidilsharipova772@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179549>

Annotatsiya: Ushbu tezisda ingliz va o'zbek tillaridagi onomatopeik so'zlarning semantik guruhlari, onomatopeik birliklarni semantik guruhlarga ajratishdagi mezonlar, aynan bir guruhga mansub birliklarning fonetik xususiyatlari, yuqoridagi ikkita tilda ularning o'xash va faqrli jiahtlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: onomatopeya, undovlar, fonetik xususiyatlar, inson tovushlari, hayvon tovushlari, semema.

Kirish. Onomatopeik birliklar ifodali til vositasi sifatida har bir tilning leksik qatlamida ajralib turadi va san'at hamda ommaviy axborot diskursida keng qo'llaniladi. Uning ifodaviy funksiyalarini amalga oshirishda onomatopeik birliklarni semantik guruhlarga bo'lib tahlil qilish shu kungacha onomatopeya mavzusi yoritilgan ilmiy ishlar uchun umumiy bo'lib kelgan jarayondir desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday hollarda, onomatopeik sememalarni har bir til uchun xos bo'lgan guruhlarga ajratish usullari tilshunoslarda alohida qiziqish uyg'otadi. Onomatopeik birliklar lingvistik, kognitiv, madaniy komponentlarni o'z ichiga oladi va milliy o'ziga xoslikka ega. Natijada, bir tildagi onomatopeyaviy so'zlarning o'ziga xosligi faqat boshqa til bilan qiyoslanganda aniqlanadi, farqlar va umumiyliklar tahlil qilinadi. Onomatopeyaning qiyoslanishi va talqin qilinishi muammosini hal qilish dolzarbligi quyidagi omillarga bog'liq:

Turli tizimli tillarda onomatopeik lug'atini semantik jihatdan batafsil tahlil qilishda masalaning faqat ayrim jihatlari ko'rib chiqilgan. Jumladan, ingliz va o'zbek tillaridagi onomatopeyaviy lug'atni solishtirib, so'zlarning universal ma'nolari va milliy semantik xususiyatlarini aniqlash ehtiyoji tilshunosligimizda aynan o'z yechimini topishga undaydigan nuqta buladi.

Onomatopeyaviy leksik birliklar quyidagi jihatlardan tahlil qilinadi:

1) Sememalarni aniqlash: onomatopeyaviy leksik birliklarni universal ma'noda birlashtiruvchi sememalar (masalan, "meow" tovushini chiqarish; "yap" tovushini chiqarish) aniqlanadi;

2) Differentsial sememalar: farqlovchi xususiyatlarni (masalan, tovush manbasi yoki tovushning xarakteri) aniqlash, bu milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan onomatopeyaviy so'zlarni o'z ichiga oladi. Onomatopeyalarning semantik,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

grammatik, strukturaviy va uslubiy tahlillari til o'ziga xosligini va madaniy farqlarni chuqurroq tushunishga yordam berdi.

Onomatopeik birliklar quyidagi genetik toifalarga bo'linadi.

1. *Ichki tovush tasvirlari.* Ushbu guruh bir nechta turlarga bo'linadi.

2. *Undov tovush tasvirlari.* Ushbu guruh insonning turli tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarga duch kelishi natijasida yuzaga keladigan tovush tasvirlarini o'z ichiga oladi.

Inson turli xil hissiy va jismoniy holatlarda bo'lishi mumkinligini inobatga olgan holda, haqiqiy undov xususiyatiga ega onomatopeik birliklarning quyidagi kichik guruhlarini ajratish maqsadga muvofiq va mantiqan to'g'ri bo'ladi. Onomatopeik birliklar va undovlar garchi alohida so'z turkumlari sifatida qaralsa-da ma'lum semantik kategoriyalarda ularning umumiy jihatlari o'xshash so'zlar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Quyidagi semantik guruhdagi onomatopeik birliklar undov so'zlarga juda yaqin turadi. Og'izdan havo chiqarish yo'li bilan talaffuz qilinuvchi onomatoplar. Bunday turdagi onomatopeik birliklar o'zbek va ingliz tillarida insonning charchoq, kuchli jismoniy zo'riqish, tez yugurish, kutilmagan xavfdan qutulish kabi holatlar natijasida hosil bo'ladigan kuchli nafas chiqarish tovushlariga taqlid qilish orqali yuzaga keladi. Masalan, ingliz tilida: "hoop" – "uf!" (insonning kuchli charchoq natijasida chiqaradigan nafasi.

Hayvon yoki inson tomonidan chiqariladigan baqiriy yoki qichqiriy: "the hoop-hoop-hoop of the large black-bodied monkey" – katta qora tanali maymunning g'alaba qichqirig'i, "pew!" – "fu!", "uf!" – insonning kutilmagan xavfdan qutulishi natijasida chiqaradigan nafasi, jismoniy og'irlik ko'tarishdan keyingi yengillik hissi.

Ushbu guruhning asosiy xususiyati shundaki, ingliz tilida [r], [h] [ph] o'zbek tilida esa [f] kabi undosh tovushlar mavjud bo'lib, ular kuchli aspiratsiya bilan talaffuz qilinadi va shu orqali kuchli nafas chiqarishga taqlidni ifodalaydi. Og'izdan havo chiqarish orqali hosil bo'ladigan onomatopeik birliklar guruhi son jihatidan oz. Bu, ehtimol, inson fiziologiyasi bilan bog'liq, ya'ni inson nafas chiqarishda cheklangan tovushlar to'plamini chiqarish imkoniyatiga ega ekanligi bilan tushuntiriladi.

2. *Norozilik bildiruvchi nafas chiqarish* Ushbu guruh tovush tasvirlari bajarilish texnikasi hamda ularni tashkil qiluvchi ayrim tovushlari bo'yicha birinchi guruhga yaqin.

Haqiqatan ham, har ikki guruhdagi tovushlarni hosil qilish mexanizmi o'xshash, faqat insonni bunday tovush chiqarishga majbur qiluvchi ichki yoki tashqi sabablar farq qiladi. Aynan shu sabablar imitativlarni ajratishga imkon beradi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

"Norozilik bildiruvchi nafas chiqarish" guruhiga kiruvchi onomatopeik birliklar kelib chiqish sabablari asosan salbiy tashqi va ichki qo'zg'atuvchilarda yotadi. Eng ko'p uchraydigan sabablar – jahl, nafrat, xafagarchilik, mensimaslik va shunga o'xshash his-tuyg'ular. Shunday qilib, bu guruhga quyidagi so'zlarni kiritish mumkin:

Ingliz tilida: “posh!” – biror narsa yoki kishiga nisbatan mensimaslik hissini ifodalaydi. “pish!” "tfu!", "fi!" (nafrat yoki sabrsizlikni bildiradi). “school!” – nafratni ifodalovchi hayqiriq.

Ushbu guruh onomatopeik birliklarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bunday taqlidiy so'zlarda sh, r, h kabi undosh tovushlar ishlatiladi, o'zbek tilida esa [p] undoshi bor bo'lib, ular kuchli nafas chiqarish bilan talaffuz qilinadi. Sof onomatopeik birliklar–ushbu turkum ichki tovush tasvirlari guruhiga mansub bo'lib, ular sof taqlidiy so'zlar sanaladi. Bu guruh nutq organlari tomonidan amalga oshiriladigan (yoki ular ichida sodir bo'ladigan) tovushlarga taqlid qilinadi. Ushbu guruh ancha keng bo'lib, quyidagi jarayonlarni ifodalovchi fe'llarni o'z ichiga oladi:

-to sniff–burunni tortish, to champ– chaynash, to lick – yalash, lab yalash) yalash(to gulp–ho'plab yutish) yutish to sneeze – aks urish, yo'talish, to bark – qo'pol yo'tal) to whisper – pichirlash) shivir hushtak chalish, shivir bilan gapirish hushtak chalish to sibilate)-to hum – g'o'ng'irlash, g'o'ng'irlash shovqin chiqarish)

-to roar – o'kirish, hayqirish. Ko'rinib turibdiki, ushbu guruhga ko'proq insonning ichki va tashqi tana a'zolari orqali qilinadigan harakatlar misol bo'la oladi.

Onomatopeik birliklar ingliz va o'zbek tillarida muhim lingvistik vosita bo'lib, ular fonetik, madaniy va semantik jihatdan farqlanadi. Ularni semantik jihatdan guruhlariga ajratish har ikkala ingliz va o'zbek tillarida ham onomatopeik birliklarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, onomatopeik birikmalarni undovlardan ajratish uchun ularning har ikkisi ega bo'lgan semantikasiga e'tibor berish kelajakda yoritiladigan ilmiy ishlar uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арнольд И.В. 'Лексикология современного английского языка' – М.: Высшая школа, 1986.
2. Boltaboyev S., G'ulomov S., Madvaliyeva G'. 'Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili' – Toshkent: O'qituvchi, 2009.
3. Crystal D. 'The Cambridge Encyclopedia of the English Language' – Cambridge University Press, 2003.
4. Иванова Н.И. 'Фонетические особенности звукоподражательных слов в английском языке' – Москва: Наука, 2005.
5. Jurayev N. 'O'zbek tilining semantikasi va uslubiyati' – Toshkent: Fan, 2010.
6. Sharipova M. “Figurative and Onomatopoeic Expressions in English and Uzbek and their Translation Problems”, Excellencia: International multi-disciplinary Journal of Education Volume 02, Issue 10, 2024.